Buyuk qomusiy alloma al Xorazmiy faoliyati chet ellik olim nigohida

Joriy yilning 20-aprel kuni O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida italiyalik olim Petro Djuzeppe Frening «Число, книги и бесконечность» nomli kitobining taqdimoti bo’lib o’tdi. Tadbir O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti, Matematika instituti, Italiyaning O’zbekistondagi elchixonasi hamkorligida tashkil etildi.

Unda O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi vitse-prezidenti, Sharqshunoslik instituti direktori tarix fanlari doktori, professor Bahrom Abduhalimov so’zga chiqib, tadbirni ochib berdi. Keyin Italiya

Respublikasining O’zbekistondagi Favqulodda va Muxtor elchisi Agostino Pinna so’zga chiqib, ikki mamlakat o’rtasidagi aloqalar haqida gapirdi.

Shundan so’ng, kitob muallifi Petro Djuzeppe Fre so’z olib, kitob haqida yig’ilganlarga qimmatli ma’lumotlarni berdi.

Mazkur kitob matematika tarixi haqida bo’lib, unda matematika bir misoli bir kemaga qiyoslanadi. Ushbu kema esa yillar ummonida sayohat qilib, sohada yetakchi bo’lgan shaxsiyatlar bilan kitobxonni tanishtirib boradi. Unda Platondan tortib, German Veylgacha bo’lgan matematiklar haqida hikoya qilinadi.

E’tiborli jihati shundaki, kitobning to’rtinchi bobi ulug’ vatandoshimiz, buyuk qomusiy alloma, algebra asoschisi Muhammad ibn Muso al Xorazmiyga bag’ishlangan. Unda allomaning hayot yo’li, faoliyati haqida qimmatli ma’lumotlar beriladi.

Tadbir O’zR FA Matematika instituti direktori, akademik Shavkat Ayupov hamda akademik Abdulla A’zamovlarning ma’ruzasi bilan davom etdi.

Taqdimot yakunida yig’ilganlar o’zlarining qiziqtirgan savollariga kitob muallifidan javoblar oldi.